



**TIJORAT BANKLARINING KREDIT PORTFELINI SAMARADORLIGINI
OSHIRISH ISTIQBOLLARI**

Azimova Firuza Alisher qizi

Bank moliya akademiyasi magistranti

Tel : +998 (90) 3373443

E-mail: feruza.mdis@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola tijorat banklari faoliyatida muhim o'rin tutuvchi kredit portfeli samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada kredit portfeli tushunchasi, uning tuzilishi, samaradorligini baholash mezonlari va unga ta'sir etuvchi omillar tahlil etilgan. O'zbekiston tijorat banklarining kredit portfeli holati va rivojlanish tendensiyalari, shuningdek, xalqaro tajriba asosida kredit portfeli samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Kredit portfeli, samaradorlik, kredit riski, diversifikatsiya, innovatsiyalar, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, bank aktivlari, kredit siyosati.*

Annotation: *This article is devoted to the issues of increasing the efficiency of the loan portfolio, which plays an important role in the activities of commercial banks. The article analyzes the concept of the loan portfolio, its structure, criteria for assessing its efficiency and factors affecting it. The state and trends of the loan portfolio of commercial banks of Uzbekistan, as well as promising areas for increasing the efficiency of the loan portfolio based on international experience are covered.*

Keywords: *Loan portfolio, efficiency, credit risk, diversification, innovation, financial stability, risk management, bank assets, credit policy.*

O'zbekiston tijorat banklari aktivlarining tarkibida kreditlar eng yuqori salmoqni egallaganligi sababli banklarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bevosita kredit portfelini sifatiga bog'liq. O'z navbatida, banklar kredit portfelining sifatini yaxshilash kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Kredit operatsiyalarini amalga oshirishda muammoli kreditlarning yuzaga kelishi, ularning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari talablari asosida tartibga solishni zaruriyat qilib qo'yimoqda.

Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, tijorat banklarida kreditlar bo'yicha to'lash va ehtimoliy yo'qotishlar zahiralarini jarayolari hisobini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari kredit portfeli samaradorligini oshirish, risklarni kamaytirish va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Kredit riskini boshqarish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish, mijozlar bilan ishlashni yaxshilash, va diversifikatsiya kabi yo'nalishlar orqali banklar o'z kredit portfeli samaradorligini oshirishlari mumkin.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Kelajakda raqamli texnologiyalarning yanada rivojlanishi, ekologik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga rioya qilish, va innovatsion kredit mahsulotlarini ishlab chiqish banklarga yanada ko'proq imkoniyatlar yaratadi. Bu esa, o'z navbatida banklarning moliyaviy barqarorligini va rentabelligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bank faoliyatini risksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Albatta risk har qanday iqtisodiy faoliyatda yuzaga keladi. Lekin faoliyat xususiyatidan kelib chiqiladigan bo'lsa, bank faoliyati uchun ham risk albatta mavjud deb aytishimiz mumkin bo'ladi. Shu tufayli, bu yerda gap bank faoliyatida riskdan umuman qochish to'g'risida emas, balki uni oldindan ko'ra bilish va minimal darajaga tushirish haqida gap boradi.

Riskni boshqarish aksariyat hollarda bankning o'z mablag'larining bir qismini yo'qotish "xavfi", daromad ololmay qolish yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida qo'shimcha xarajatlarga yo'l qo'yib bo'lsada, jarayonni ijobiy natija bilan yakunlashni maqsad qilib qo'yadi. Yuqoridagi fikrlar asosi sifatida mamlakatimizda bank risklarini, xususan, kredit risklarini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar bilan tanishib chiqsak.

Mamlakatimiz kredit risklarini boshqarish jarayonlarini yaqqol o'zida mujassam etuvchi bir nechta normativ hujjatlar mazmun – mohiyatini tahlil qilsak. Tijorat banklarining faoliyatidagi kredit risklarini boshqarish bankning muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlash uchun juda muhim. Kredit riski, mijozning qarzlarini qaytarish imkoniyati yo'qligi bilan bog'liq bo'lgan riskdir.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, riskni boshqa kompleks aktivlar yig'indisi va vaziyatlar bilan aloqadorligidagi ta'sirini o'rganish kerak bo'ladi. Masalan, tovar va xizmatlarni, homashyoni import qilish hisobidan ishlab chiqaruvchi va kelgusida eksport qiluvchi tashkilot valuta riskiga ta'sirchan deb aytishimiz mumkin. Chet mamlakatdan import qilinadigan homashyo va eksport qiladigan tovar va xizmatlar bahosi uzoq muddatli kontraktlarda aniq fikserlangan xorijiy valutada bo'ladi. Istalgan kelajakdagi valuta kursidagi o'zgarishlar bir xilda import qilinadigan homashyo va tayyor mahsulotning milliy valutadagi bahosiga bir xil ta'sir qiladi. Lekin, valuta kursidan yuzaga kelgan umumiy risk 0 ga teng bo'ladi, chunki uni ko'proq daromad va xarajatlar orasidagi farq ya'ni foyda qiziqtiradi, ya'ni xarajatlarning oshishi realizatsiya qilinadigan tovarlar bahosi bilan kompensatsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023-2024 – yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari".
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Statistik-byulleteni" – 2018, 2019, 2020, 2021, 2022-yillar ma'lumotlari.
3. Rasulov T.S. va Ziyodilloev X.R., "Tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirish yo'nalishlari", Monografiya, Toshkent-2024.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



4. Otamurodov H.H. “Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish”, PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. Toshkent-2019.

